

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

AMIR TEMUR DAVRI SHAHARSOZLIGI MASALASINING AKADEMİK

B.AHMEDOV TADQIQOTLARIDA YORITILISHI

F.Raxmonberdiyev

Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: risolada, Mavarounnahr va Turkistonidagi mavjud tarqoqlikka barham berilgani, mamlakatni mug'ullar zulmidan ozod qilinishi, markazlashgan qudratli davlatga asos solinishi, vayron bo'lib yotgan shaharlarni tiklanishi, hunarmandchilik, savdo-sotiqa va ziroatchilikning rivojlanishiga shart-sharoit yaratib berilganligi sohibqironning Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixidagi eng muhim xizmatlaridan biri sifatida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, shaharsozlik, qurilish, bunyodkorlik, Samarqand, Buxoro, Mavarounnahr, tarixshunoslik, tahlil.

Olim o'zining Amir Temur shaharsozlik islohotlari haqidagi fikrlarini davom ettirib, xazrat sohibqironning sa'y-harakati bilan Samarqandda birmuncha jamoat binolari, jumladan, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, karvonsaroylar va hammomlar ham qurilganligini qayd etadi [1:39]. Bularidan XIV asr oxiri – XV asr boshida qurdirilgan Bibixonim madrasasi (1399-1404) eng mashhuri hisobalanadi.

Bundan tashqari, Amir Temur Samarqand atrofida yangi-yangi shaharchalar qurdi, ajoyib chorborg'lar bunyod etdi. Shaharchalarni Misr, Dimishq, Bag'dod, Sheroz va Sultoniya deb atadi. Olim buning tagida katta maksad va siyosat yotishini ta'kidlab, bu bilan Temur Samarqand va o'z saltanatini jahonning markazi deb, boshqa poytaxtlar esa uning atrofida aylanuvchi yo'l doshlar demokchi bo'lganligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlarni isboti uchun temurshunos olim tomonidan ispaniyalik mashhur sayyoh olim va elchi Klavixodan quyidagicha iqtibos keltiriladi: "Samarqand shaharida xar yili Xitoy, Hindiston, Dashti qipchoq va boshqa mamlakatlardan, shuningdek, nihoyatda boy Samarqand saltanatining uzidan keltirilgan mollar sotiladi. Shaharga olib kelingan mollarni bir yerda, tartib bilan joylashtirib sotadigan joy yo'k edi shu paytgacha. Podshoh shaharda ikki tarafida qator dukonlar o'rnatilgan savdo rastasi bo'lgan ko'cha o'tkazishni buyurdi". Bundan ko'rinadiki, Amir Temur tomonidan o'z davrida shaharsozlik sohasida muhim ishlar amalga oshirilgan.

B.Ahmedov ayni davrda bog'dorchilik sohasida amalga oshirilgan ishlarga ham e'tibor qaratib, Samarkand va uning tevaragida 1378-1404 yillar orasida Bog'i nav, Bog'i jahonnumo, Bog'i taxti qoracha va Bog'i davlatobod singari ajoyib chorborg'lar bunyod ettilganligini ta'kidlaydi. Ularning baland yerida muhtasham qasrlar, qasr oldida esa favvoralar o'rnatilgandi. Temur va Temuriylar qurdirgan chorborg'lar katta va mahobatli bo'lgan. Bog' ichidagi qasrlar ham ko'pincha ikki qavtli bo'lib, ustunlari mar mar toshdan, devorlari turli rangdagi koshinlar bilan qonlangan, ichkarisi ajoyib rasmlar bilan bezatilgan. Bu boradagi fikrlarining tasdig'i uchun olim manbalarga murojaat qilib, Ibn Arabshohning "... Bu qasrlarning har biriga biriga o'z majlislarini, o'z suratini turli shakllarda... o'zi qilgan janglarning tasvirlarini, rasmii tantanalardan suratlarni, podshohlar, amirlar, sayyidlar, ulamo va ulur kishilar bilan qurban majlislarini, sultonlarni uning huzurida qo'l qovushtirib turishlarini, aysh-ishrat majlislarini tasvirlagan"ligiga oid qaydlarini keltiradi.

Olim tomonidan ko'rib o'tilayotgan davrda Amir Temurning Yassi va Buxoro shaharlaridagi qurilish ishlariha ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 1398 yilda xoja Axmad Yassaviyning mozori ustiga dush gumbazli oliv imorat qurdirib, unga vaqflar tayinlaganligini ta'kidlaydi. Chingizzon hurujidan keyin yer bilan yakson bo'lib yotgan Banokat shahrini 1388 yilda tamom qaytadan qurdirdi va bu shahar Shohruhiya nomi bilan shuhrat topdi. Temurning rag'bati bilan Mavarounnahr shalarlarida, xususan, Samarqand, Buxoro va Yassida tasviriy va xalq amaliy san'ati keng rivojlandi. Shohizindadagi Shirinbeko og'a (1385) va Tuman

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

og‘o maqbaralari (1405) devorlariga ishlangan manzarali suratlar, Abuldosim Firdavsiyning «Shohnoma», «Eron shoirlari antologiyasi» (X – IV asr oxiri)ga ishlangan miniyaturlar movarounnahrlik rassomlarning yuksak did va iste’dodining mahsuli hisoblanadi. Bu borada, olim tomonidan Samarqandlik mo‘yqalam sohiblari va xattotlari orasida usta Abdulhay, Pir Admad Bog‘ishamoliy va Xoji Bangir Tabriziylar alohida o‘rin tutganligi alohida qayd etiladi. Markaziy Osiyolik ustalar, ayniqsa, yog‘och va toshga naqsh berish, oltin, kumush, bronza va qimmatbaho toshlardan ishlangan uy-ruzgor va zeb-ziynat buyumlarini ishlab chiqarishda zo‘r shuhrat qozonganliklari ta’kidlanadi. Chindan ham Turkistondagi xoja Ahmad Yassaviy va Shohizindadagi maqbaralarga tegishli doshqozon va shamdonlar, Go‘ri Amirga qo‘yilgan va Temurning ismi yozilgan shamdon va Shohizinda eshiklari bundan guvohlik berib turibdi.

Umuman, Samarkand Temur zamonida mustahkam va chiroyli shaharga aylandi. Xofizi Abruning so‘zlari bilan aytanda, “[Temur] loydan bo‘lgan Samarqandni qaytadan toshdan qurdi”. Amir Temur ota shahri Shahrisabzni ham obod qildi. Shaharping buzilib yotgan devorlari va mudofaa inshootlarini, aziz-avliyolarning qabrlarini obod kildi, mahobatli qasrlar, masjidu madrasalar, maqbaralar, chorusu va bozorlar, hammomlar qurdirdi [1:38]. Bu kabi inshootlardan, 1380-1404 yillarda qurilgan Oksaroy hamda xilxonaga mo‘ljallab qurilgan 1380 yilda bunyod etilgan Dor us-saodat imorati shu kunlargacha saqlanib qolganligi barcha yaxshi ma’lum.

B.Ahmedov o‘z risolasida Amir Temurning shaharsozlik sohasida amalga oshirgan ishlari va ularning natijalariga xulosa qilib, Amir Temur o‘zidan oldin o‘tgan podshoh va fotihlardan farqli o‘larok, ilm-fan, madaniyat va san‘at borasida ijob fikrdagi shaxs bo‘lgan va bu soha fidoiylariga hamisha g‘amho‘r xamda homiylik qilgan, degan to‘htamga keladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. B.Ahmedov. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy siyosiy faoliyati). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.
2. Ahmedov B. Ulug‘bek – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
3. Ahmedov B. O‘zbek ulusi – Toshkent: A.Qodiriy, 1992.
4. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
5. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.